

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

UO'K: 338.2:336.61(575.1)

QARSHIYEV NODIRBEK OLIM O'G'LI

DAVLAT KORXONALARIDA MOLIYAVIY
SAMARADORLIKNI BOSHQARISH TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISH

08.00.13. – “Menejment”

08.00.07. - “Moliya, pul muomalasi va kredit” ixtisosligi

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini
olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:
Iqtisodiyot fanlari doktori, prof. M.P. Eshov

Toshkent – 2025

MUNDARIJA

Bet

KIRISH.....	3
I.BOB. DAVLAT KORXONALARIDA MOLİYAVIY SAMARADORLIK VA UNI BOSHQARISH TIZIMINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	13
1.1. Davlat korxonalarini milly iqtisodiyot taraqqiyotidagi tutgan o'rni.....	13
1.2. Davlat korxonalarining moliyaviy samaradorligi boshqarish tamoyillari va uning funktsional elementlari.....	26
1.3. Davlat korxonalarining moliyaviy samaradorligini boshqarish ko'rsatkichlari tizimi va uning o'ziga xos xususiyatlari.....	36
Birinchi bob bo'yicha xulosalar.....	44
II. O'ZBEKISTONDA DAVLAT KORXONALARI MOLİYAVIY-XO'JALIK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BOSHQARISH HOLATI TAHLILI.....	46
2.1. O'zbekistondagi davlat korxonalari moliyaviy-xo'jalik faoliyati samaradorligining amaldagi holati tahlili.....	46
2.2. Davlat korxonalari moliyaviy samaradorligining amaldagi holatini kompleks taqqoslama tahlili.....	68
2.3. Davlat korxonalarining moliyaviy samaradorligining ekonometrik tahlili	76
Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar	94
III. DAVLAT KORXONALARIDA MOLİYAVIY SAMARADORLIKNI BOB. BOSHQARISHNING FUNKTSIONAL ELEMENTLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	96
3.1. Davlat korxonalari moliyaviy samaradorlik ko'rsatkichlarini oshirish bilan bog'liq muammolar va ularni bartaraf etish yo'lari	96
3.2. Davlat korxonalarida zamonaviy integrallashgan axborot tizimlaridan foydalanish orqali moliyaviy-xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirish yo'lari.	104
3.3. Davlat korxonalarida moliyaviy samaradorlik ko'rsatkichlarini oshirishning istiqbolli yo'llari	112
Uchinchi bob bo'yicha xulosalar.....	124
XULOSA.....	126
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	131
ILOVALAR.....	138

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurligi. Jahon iqtisodiyoti sharoitida davlat korxonalarida moliyaviy samaradorlikni boshqarish tizimini takomillashtirish yuqori moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, davlat aktivlaridan samarali foydalanish hamda raqobatbardoshlikni oshirishda muhim o'rin tutadi. Zero, zamonaviy boshqaruv mexanizmlari, xususan, natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish, xarajatlarni optimallashtirish va moliyaviy tahlil instrumentlarini joriy etish orqali davlat korxonalari faoliyatida shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytirish mumkin. Shu yo'sinda, moliyaviy samaradorlikning oshishi nafaqat milliy iqtisodiyotning samaradorligiga, balki investitsiyaviy jozibadorlik va ijtimoiy barqarorlikning yuksalishiga ham bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Dunyo bo'ylab davom etayotgan xususiylashtirish jarayoniga qaramay, davlat korxonalari Osiyo, Yevropa va Lotin Amerikasidagi aksariyat sohalarda ustunlik qiladi. Iqtisodiy taraqqiyot va hamkorlik tashkiloti ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, "45 mamlakatda 3000 dan ortiq korxonalar davlatga tegishli va ular kapital tuzilishida 3 trillion dollarni tashkil etadi va 2024-yilda 10 milliondan ortiq kishini ish bilan ta'minlaydi". Shunga ko'ra, ko'plab mamlakatlarda davlat korxonalarida moliyaviy samaradorlikni boshqarish tizimini takomillashtirish dolzarb ahamiyatga ega.

Jahon amaliyotida davlat korxonalarida moliyaviy samaradorlikni boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlari sifatida korporativ boshqaruv standartlarini joriy etish, moliyaviy ko'rsatkichlar asosida samaradorlikni baholash metodologiyalarini ishlab chiqish, raqamli texnologiyalar orqali moliyaviy hisobotlarni avtomatlashtirish hamda davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish mexanizmlarini tadqiq etish kabi masalalar e'tirof etilmoqda. Shu bilan birga, resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash, zarar bilan ishlayotgan korxonalarni transformatsiya qilish va faoliyat natijalarini natijaviylik va samaradorlik mezonlari asosida baholash ilmiy izlanishlarning markaziy nuqtasiga aylanmoqda. Bunday tadqiqotlar davlat mulkini boshqarishning shaffof va natijador modellarini yaratishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda davlat korxonalarining milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati g'oyat yuqori bo'lib, makroiqtisodiy barqarorlik va izchil iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashda davlat korxonalari o'ziga xos ravishdagi "drayver" ahamiyatiga ega bo'lgan tadbirkorlik faoliyati sifatida maydonga chiqmoqda. Shuningdek, ushbu tadbirkorlik subyektlari byudjet tizimi byudjetlari daromadlarini shakllantirishda "yuqori fiskal omil" bo'lib xizmat qilishi bilan bir qatorda mamlakatdagi bandlik va aholi real daromadlarini oshirishda ham muhim rol o'ynamoqda. Lekin, keyingi yillarda to'lov intizomi bilan bog'liq muammolar natijasidagi yuqori debitorlik qarzlari, yuqori tannarx xarajatlari hisobiga past darajadagi aktivlar rentabellik, majburiyatlar va soliqlar hisobiga yuqori xarajatlar natijasidagi xususiy kapital rentabelligining past darajasi davlat korxonalari moliyaviy samaradorlik

ko'rsatkichlarini tahlillash bilan bog'liq muammolarni kuzatilishiga va pirovard natijada mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar samaradorligini ta'minlashga salbiy ta'sir etmoqda. Iqtisodiyotda davlat korxonalarining ulushini kamaytirish, xususiy sektor va xorijiy kompaniyalar uchun sog'lom raqobat muhitini yaratish maqsadida O'zbekiston hukumati davlat korxonalarini xususiylashtirish va iqtisodiyotga aralashuvini kamaytirish bo'yicha faol ish boshladi. 2019-2023-yillar davomida davlat korxonalari soni izchil kamaydi. Past darajadagi rentabellik va sezilarli zararlarni kamaytirishga qaratilgan moliyaviy samaradorlik ko'rsatkichlarini boshqarish, davlat korxonalari moliyaviy barqaror rivojlanishini ta'minlash zarurati ushbu dissertatsion tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida", 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2022-yil 8-apreldagi PF-101-son "Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to'g'risida", 2020-yil 27-oktyabrdagi PF-6096-son "Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishni jadallashtirish hamda davlat aktivlarini xususiylashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida", 2019-yil 14-may PF-5718-son "Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va himoya qilish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2015-yil 24-apreldagi PF-4720-son "Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari hamda ushbu faoliyatga doir boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining [I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda